

ABUL-MU'IN AN-NASAFIYNING HAYOTI, USTOZ VA SHOGIRDLARI

*Madaminzoda Abdulatif Baxtiyor o'g'li, Buxoro davlat universiteti
tayanch doktoranti*

ABUL-MUIN AN-NASAFI'S LIFE, TEACHERS AND DISCIPLES

*Madaminzoda Abdulatif Bakhtiyor ogli, PhD Candidate, Bukhara
State University*

ЖИЗНЬ, УЧИТЕЛЯ И УЧЕНИКИ АБУЛ-МУИНА АН-НАСАФИ

*Мадаминзода Абдуллатиф Бахтиёр оглы, базовый
докторант Бухарского государственного университета*



<https://orcid.org/0009-0001-9053-6890>

e-mail:
madaminzodaabdulatif@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola mashhur islom olimi, Moturidiy

aqidaviy maktabining yirik namoyandasi Abul-Mu'in an-Nasafiyning hayoti, ilmiy faoliyati, ustozlari va yetishtirgan shogirdlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Muallif tarixiy va biografik manbalarni tahlil qilib, Abul-Mu'in an-Nasafiyning to'liq ismi, tug'ilgan va yashagan joylari, ilmiy unvonlari, ta'lim olgan va ta'lim bergan shaxslar, ilmiy merosi va uning Moturidiylik maktabidagi o'rni haqida keng qamrovli ma'lumotlarni bayon qiladi.

Kalit so'zlar: Abul-Mu'in an-Nasafi, moturidiylik, Kalom ilmi, aqida, islomiy ilm-fan, Nasaf, Abu Mansur al-Moturidiy, shogirdlar, ustozlar, ilmiy meros, Tabsira al-Adilla, At-Tamhid, islom tarixiy shaxslari.

Annotation: This article provides a detailed account of the life, scholarly activity, teachers, and students of the prominent Islamic scholar and leading representative of the Maturidi theological school - Abul-Mu'in an-Nasafi. Drawing on historical and biographical sources, the author analyzes the scholar's full name, places of birth and residence, academic titles, and the individuals from whom he studied and to whom he taught.

Keywords: Abul-Mu'in an-Nasafi, maturidism, ilm al-Kalam (theology), aqeedah (creed), islamic scholarship, Nasaf, Abu Mansur al-Maturidi, disciples, teachers, scholarly heritage.

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о жизни, научной деятельности, учителях и учениках выдающегося исламского ученого, крупного представителя матуридийской догматической школы – Абу-л-Муина ан-Насафи.

Ключевые слова: Абу-ль-Муин ан-Насафи, матуридизм, наука Калама, акыда (догматика), исламская наука, Насаф, Абу Мансур аль-Матуриди, ученики, учителя, научное наследие.

KIRISH. Abul-Mu'in an-Nasafi Imom Abu Mansur al-Moturidiy bilan birga Moturidiy aqidaviy-ilohiy maktabining ikki muhim arbobidan biri hisoblanadi. Garchi Moturidiy mazhabi vakili bo'lsa-da, uning hayoti haqida tabaqot (shaxsiy biografiya), millat-mazhablar tarixi va umumiy tarix kitoblarida bir-biriga o'xshash, qisqacha ma'lumotlardan ortiqroq ma'lumotlar uchramaydi. Ma'lumotlarning yetishmasligi yoki ba'zan qarama-qarshi fikrlar mavjudligi tufayli Abul-Mu'in an-Nasafiyning to'liq ismi turlicha keltirilgan. Lekin biz tarjimai hol kitoblarida berilgan ismlarni afzal bildik. U kishining

to'liq ismi Abul-Mu'in Maymun Muhammad ibn Muhammad ibn Mu'tamid ibn Muhammad ibn Makhul Ibn al-Fazl al-Makhul an-Nasafiydir. Zirikliyning "A'lom" asarida Abul-Mu'in an-Nasafiyning ismi Abul-Mu'in Maymun ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Ma'bad ibn Maxlul an-Nasafi al-Hanafi deb qayd etilgan. Jibullahiy Hasan Ahmad barcha biografik kitoblarni o'rganib chiqqach, Abul-Mu'in an-Nasafiyning to'liq ismi deb, biz yuqorida birinchi keltirgan ismga to'xtaldik.

Tadqiqot obyekti, manbaviy asosi. Abul-Mu'in "Nasafi" nisbasi bilan mashhur bo'lgan. Bu

nisbat o'sha davrdagi Samarqand va Jayhun daryosi oralig'idagi Nasaf shahriga berilgan. Bu shahardan ko'plab yetuk olimlar yetishib chiqqan va ular ham shu laqab bilan atalgan. Boshqacha aytganda, bu shahar olimlarga boy bo'lgani sababli ko'plab ulug'larga bu nisbat berilganini uchramiz. Yana bir laqabi Makhuliy bo'lib, bu laqab uning uchinchi bobosiga nisbat berilgan. Bundan tashqari, Abul-Mu'in Nasafiy "Imamul-Ajal az-Zohid", "Sayful Haq", "Qomi'ul Mulahhidin", "A'zd-Din", "Jomi'ul-Usul", "Raisu Ahlus-Sunna val-Jamoat" kabi unvonlarga ham ega bo'lgan. Olimlar uni eng muhim asari bo'lmish "at-Tabsyira"ga nisbat berib, Sohibul-Tabsyira deb ham atashgan. Tug'ilgan sanasiga kelsak, bu borada ham manbalarda turli xil ma'lumotlar bor. Abul-Mu'in an-Nasafiyning tug'ilgan yili haqida faqat Zirikliy uning hijriy 418-yilda tavallud topganini zikr etadi. Qutlubog'a esa, Abul-Mu'in an-Nasafiy 70 yoshda, hijriy 508-yilda vafot etganini qayd qiladi. Qutlubog'aning hisob-kitobiga ko'ra, an-Nasafiy hijriy 438-yilda tug'ilgan. Aksariyat tarixchilar an-Nasafiyning milodiy 1027-yilda dunyoga kelgan degan fikrda.

Ustozlari: Abul-Mu'in an-Nasafiyning tug'ilgan joyi haqida ham ixtiloflar bor. Lekin u Samarqand va Jayhun daryosi o'rtasidagi Nasaf shahrida tug'ilgani qabul qilinadi. An-Nasafiy ushbu shaharga nisbat berilganidan uning shu yerda tug'ilgani ma'lum bo'ladi. "Moturidiyya Ta'limoti va Abul-Mu'in an-Nasafiyning Ilmiy Merosi" kitobida Sam'aniy Abul-Mu'in an-Nasafiy ismida kelgan "al-Ibsaniy" iborasidan kelib chiqib, boshqacha fikr bildiradi. Ibsan hozirgi O'zbekistondagi Qarshi shahridan taxminan besh-olti kilometr uzoqlikda joylashgan bir qishloqdir. Shuning uchun Sam'aniy bu qishloqqa nisbat berilganligi sababli uning shu joyda tug'ilganini aytadi. Uning oilasi haqida so'z borganda, biografiya va tarixiy manbalarda Nasafiyning to'rtinchi bobosi Maxul ibn Fadl an-Nasafiydan boshlab, bu oilaning faqat ilmiy faoliyati haqida rivoyatlar mavjud. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Abul-Mu'in an-Nasafiy hayoti davomida Nasaf, Samarqand va Buxoro shaharlarida yashagan. Buxoroda yashagan davrlarida Abu Mansur al-Moturidiyning ta'limotlarini keng omma orasiga yetkazish imkoniyatiga ega bo'lgan. Ba'zi manbalarda Nasafiy faqih va muhaddis sifatida ham qabul qilinadi. Shu bilan birga, Nasafiy haqidagi ishlari bilan tanilgan

Yazijio'g'li esa, uning faqihlik maqomini inkor etadi va Nasafiyning Kalom ilmi olimi sifatida baholaydi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Abul-Mu'in Nasafiyning vafot sanasiga kelsak, manbalarda uning milodiy 1115 yoki 1114-yilda vafot etgani ko'rsatilgan. Qabrining qayerdaligi haqida manbalarda ma'lumot yo'q. Biroq, mahalliy xalq tomonidan bir ulug' zotning qabri ekanligi qabul qilinishidan kelib chiqib, ba'zi O'zbekistonlik tadqiqotchilar Nasafiyning qabri O'zbekistonning Qarshi viloyatidagi Kovchin nomli qishloqda joylashgan bo'lishi mumkin, deb taxmin qilishadi. Ammo bu, bugungi kungacha shunchaki taxmindan nariga o'ta olmagan. Chunki qabr toshi ustidagi yozuvning juda eski va o'qib bo'lmaydigan holga kelganligi sababli, ushbu qabrning Nasafiyga tegishli ekanligini tasdiqlash imkoni yo'q. Abul-Mu'in an-Nasafiyning asarlari ustida ish olib borgan zamonaviy tadqiqotchilar uning shaxsiga alohida e'tibor berishadi. Said Muxtor Okilov, Umar Nasafiyning "Kitabul-Qant" asarida Abul-Mu'in an-Nasafiy haqida aytgan "U G'arbning va Sharqning olimi edi. Uning dengizidan cho'mich bilan ichilardi, odamlar uning nurlari bilan yoritilardi" kabi iboralarni alohida urg'ulaydi.

Imom Abu Mansur al-Moturidiyning "Kitabut-Tavhid" asarini tadqiq qilgan Fatxulloh Xulayf: "Abul-Mu'in an-Nasafiyning Moturidiy mazhabining shakllanishida katta o'rni bor. Boqillaniy va G'azzoliyning Ash'ariy aqidaviy maktabidagi o'rni qanday bo'lsa, Nasafiyning Moturidiy aqidaviy maktabidagi o'rni ham shundaydir", - degan so'zlari bilan Abul-Mu'in an-Nasafiy haqidagi fikrini bayon etadi. Nasafiyning "Tabsira al-Adilla" nomli asarini tadqiq qilgan Husayn Atay tahrirlangan matnga yozgan muqaddimasida "Shubhasiz, Abul-Mu'in an-Nasafiy Moturidiy mazhabining buyuk vakilidir. Undan oldin ham, keyin ham unga o'xshaganini ko'rmadik", deb Nasafiy haqidagi fikrini bildiradi. Abul-Mu'in an-Nasafiy haqidagi fikrlarning umumiy jihati - uning Abu Mansur al-Moturidiydan keyin Moturidiylikning eng muhim targ'ibotchisi ekanligidir.

Abul-Mu'in an-Nasafiyning ustozlari haqida aniq ma'lumotlar bo'lmasa-da, "Kitobul-Olim val-Muta'allim" nomli asarda uning birinchi bo'lib otasidan dars olgani rivoyat qilinadi. Nasafiyning otasi Muhammad ibn Muhammad Mu'tamid o'z otasidan

hadis rivoyat qilgan. Bu holat Nasafiyning otasining ham ilm ahli bo'lgani haqida fikr tug'diradi. Bundan tashqari, Abu Mu'tamidning ukasi Abu Bad'iy Ahmad ibn Muhammad ham o'z davrining fiqh olimlari orasida bo'lgan. Abul-Mu'in an-Nasafiyning ikkinchi bobosi Mu'tamid ibn Muhammad ibn Makhul Abul-Ma'liy ham o'z otasidan hadis rivoyat qilgan. Uchinchi bobosi Abu Mutiy Makhuldan ham ta'lim olgan bo'lish ehtimoli bor. Bu zotga mashhur kalom ilmi olimi degan nisbat beriladi. Bu shaxs fiqhii masalalarda Hanafiy mazhabiga mansub bo'lgan. Ammo e'tiqodiy sohada esa Abu Mansur al-Moturidiyning emas, balki Ibn Karromning kalomiy qarashlarini qabul qilgan.

Shogirdlari: Abul-Mu'in Nasafiy (rahimahulloh) yetuk olim bo'lishlari bilan birga ko'p sonli shogirdlar ham yetishtirib chiqarganlar. Ulardan eng mashhurlarini keltirib o'tamiz. Mutakallim, mufasss, muhaddis va hanafiy usuli olimi Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ismoil ibn Muhammad Nasafiy as-Samarqandiy. Hijriy 461-yilda Nasaf shahrida tug'ilib, hijriy 537-yilda Samarqandda vafot etgan. U ta'limni Abul-Yusr al-Bazdaviy, qozi Mansur al-Joriy va Ibn Muhammad at-Tannuxiydan olgan. Uning ko'plab shayxlari bor bo'lib, ularni "Umar shayxlarining adadi" nomli kitobida to'plagan. Bu zotdan o'g'li Abu Lays Ahmad ibn Umar Nasafiy, Abu Bakr Balxiy, "Hidoya" kitobining sohibi ta'lim olishgan va Umar ibn Muhammad ibn Umar u kishidan rivoyat qilgan.

Umar Nasafiyning "Mavoqit", "Al-akmal al-atval fi tafsiril Qur'an", "Tarixu Buxoro", "Majmaul ulum", "Axbarus siho" va "Talabatu talaba fi istilahil fihiyya" kabi asarlari mavjud. Keyingilari "Tuhfatul fuqaho" asarining sohibi, "Al-Badoi'" kitobining muallifi Alouddin Kosoniyning ustozlari Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Ahmad Abu Bakr Alouddin as-Samarqandiydir. Bu zot Abu Mu'in Nasafiy va Sodrul-islom Abul-Yusr al-Bazdaviy kabi ulamolar qo'lida kamol topgan. Usul ilmiga oid "Lubob" nomli mashhur kitoblari bor. O'zlarining qizlari, Alouddin Kosoniyning rafiqasi, fiqh ilmining olimasi Fotima ham o'zlarining qo'lida ta'lim olgan. Hijriy 575 (milodiy 1180)-yili vafot etganlar.

"Al-Badoi' as-sanoyi'" asarining sohibi Abu Bakr ibn Masu'd ibn Ahmad Alouddin al-Kosoniy. Bu zot Farg'ona vodiysiga qarashli Koson shahrida

tug'ilib, taxminan balog'at yoshiga yetgach, ilm olish maqsadida Buxoroga boradi. Ilm markazi bo'lgan Buxoroda ko'plab ustozlardan, xususan, Alouddin Samarqandiydan dars olib, fiqh, hadis, aqida va tafsir ilmlarida yetuk olim bo'lib yetishdi. U ham ustozlari va ham qaynotasi bo'lmish Alouddin Samarqandiyning "Tuhfa al-fuqaho" ("Faqihlar uchun tuhfa") asarini sharhlab, "Badoi' as-sanoyi' fi tartib ash-sharoyi'" ("Shariatni tartiblashda go'zal uslub") asarini yozadi. Ustozlari bundan mamnun bo'lib, o'z qizi Fotimani Kosoniyga turmushga beradi. Shu tariqa ikki alloma o'zaro qarindosh bo'ladilar.

XULOSA. Ibrohim ibn Is'hoq as-Saffor al-Buxoriyning faoliyati Moturidiylik ta'limotining Buxoro va undan tashqari hududlarda keng tarqalishiga katta hissa qo'shgan. U Abul-Mu'in an-Nasafiyning shogirdi sifatida kalom ilmini chuqur o'rganib, ustozining fikriy va ilmiy merosini davom ettirgan. As-Safforning "Risola fiho masoil suila anho ash-shayx as-Saffor fa ajaba anho" hamda "Kitob talxisi-l-adilla li qavoidi-t-tavhid" kabi asarlari Buxoro aholisi uchun kalom va tavhid masalalari bo'yicha muhim ilmiy qo'llanma sifatida xizmat qilgan. Bu asarlarning ayrim qo'lyozmalari hanuzgacha Turkiyadagi kutubxonalarda saqlanayotgani uning ilmiy merosining xalqaro ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nasafiy Abu-l-Mu'in Maymun ibn Muhammad. Bahrul-kalom / Valiyuddin Muhammad Solih al-Farfur nashri. – Damashq: Maktaba dorul farfur, 1997.
2. Hayreddin Zirkli, (1998). A'lom Qomus Tarjim, VII, Beyrut.
3. Ubaydulla Uvatov, Saidmuhtar Okilov, Ergash Dominov, (2018). Moturidiya ta'limoti va Abul Mu'in Nasafiyning ilmiy merosi, Toshkent.
4. Otabek Muhammediyev. (2016). O'rta asr sharq allomalari ensiklopediyasi. Samarqand.
5. Saidmuhtar Okilov. (2008). Abul Mu'in Nasafning ilmi merosi ve Maturidiya ta'limoti, Toshkent.
6. Husayin Atay, Tabsiratul Adilla fi Usulud-Din, Ankara, 1993.
7. Рудольф У. Аль-Матуриди и суннитская теология в Самарканде. – Алматы: Леидин, 1999.
8. Ibn Kamol Bosh. Favaidul bahiyya. – Bayrut: Dorur raqam, 1998.
9. Namuna sifatida qarashingiz mumkin: Alouddin Kosoniy. Badoi' as-sanoyi'. – Bayrut: Dorul kutub, 1983.